

XOTIN-QIZLARGA NISBATAN TAZYIQ VA ZO'RAVONLIKLARNING PROFILAKTİKASIDAGI USTUVOR YO'NALISHLAR



Maxtumova Yulduz Botir qizi

Jamoat xavfsizligi universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada xotin-qizlarga nisbatan sodir etiladigan tazyiq va zo'rvonliklar profilaktikasidagi ustuvor yo'nalishlar ilmiy manbalar hamda amaliy tajriba asosida yoritib berilgan. Shu bilan birga, mavjud muammolar – huquqiy savodxonlikning pastligi, idoralararo hamkorlikdagi sustkashlik, rehabilitatsiya tizimining yetarli emasligi kabi kamchiliklar tahlil etilib, ularni bartaraf etish bo'yicha taklif va tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: xotin-qizlar, tazyiq va zo'rvonlik, profilaktika, huquqiy ong, huquqbuzarliklar, ijtimoiy-iqtisodiy omillar, gender tengligi, huquqni muhofaza qiluvchi organlar, rehabilitatsiya, institutsional hamkorlik, huquqiy madaniyat.

ПРОФИЛАКТИКА ДАВЛЕНИЯ И НАСИЛИЯ В ОТНОШЕНИИ ЖЕНЩИН: ПРИОРИТЕТНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ

Аннотация. В данной статье освещаются приоритетные направления профилактики давления и насилия в отношении женщин на основе научных источников и практического опыта. Вместе с тем выявлены существующие проблемы – низкий уровень правовой грамотности, слабое межведомственное взаимодействие, недостаточность системы реабилитации и предложены рекомендации по их устранению.

Ключевые слова: женщины, давление и насилие, профилактика, правосознание, правонарушения, социально-экономические факторы, гендерное равенство, правоохранительные органы, реабилитация, институциональное сотрудничество, правовая культура.

PRIORITY DIRECTIONS IN THE PREVENTION OF PRESSURE AND VIOLENCE AGAINST WOMEN

Abstract. This article explores the priority directions of preventing pressure and violence against women, based on scientific sources and practical experience. At the same time, current challenges – low legal literacy, weak interagency cooperation, and insufficient rehabilitation mechanisms are analyzed, and practical recommendations for their resolution are provided.

Keywords: women, pressure and violence, prevention, legal awareness, offenses, socio-economic factors, gender equality, law enforcement bodies, rehabilitation, institutional cooperation, legal culture.

Xotin-qizlarga nisbatan sodir etiladigan tazyiq va zo'rvonliklar profilaktikasining bir nechta ustuvor yo'nalishlari bo'lib, bu borada hamyurtlarimiz hamda xorijlik tadqiqotchilar turlicha fikr-mulohazalar bildirishgan. Xotin-qizlarga nisbatan sodir etiladigan tazyiq va zo'rvonliklar profilaktikasining ustuvor yo'nalishlari haqida fikr yuritir ekanmiz, avvalo, profilaktika yo'nalishlariga to'xtalib o'tamiz.

Xususan, I.M.Mirzaraimov umumijtimoiy profilaktik chora-tadbirlarni: axloqiy-tarbiyaviy va ijtimoiy-ruhiy; iqtisodiy; ijtimoiy; siyosiy; tashkiliy-huquqiy guruhlariga bo'lishni tavsiya etadi [1; 109-b.]. K.E. Igoshev esa umumiy profilaktikani iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy, davlat-huquqiy, ijtimoiy-psixologik va madaniy-tarbiyaviy choralardan iborat bo'lishi lozim deb hisoblaydi [2; 57-b.]. Mazkur fikrni M.Q. O'razaliyev ham ma'qullaydi

[3; 93-b.]. I.Yu. Fazilov ushbu tizimni batafsilroq bayon etish zarur deb hisoblab, tizimni: huquqiy; tarbiyaviy-profilaktik; ijtimoiy-iqtisodiy; ma'naviy-axloqiy; tibbiy; psixologik; tashkiliy va boshqa chora-tadbirlar tariqasida shakllantirishni taklif etgan [4; 224-b.]. F.T. G'aniyev esa profilaktik tadbirlar ko'lamiga ko'ra chora-tadbirlarni uch guruhga, ya'ni umumiy, maxsus va individualga ajratadi [5]. A.Sh. Murodov esa maishiy zo'ravonliklarning oldini olishning ustuvor yo'nalishlari sifatida O'zbekiston Respublikasining "Voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida", "Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida", "Ichki ishlar organlari to'g'risida"gi va boshqa qonunlari, shuningdek, ichki ishlar organlari faoliyatiga oid normativ-huquqiy hujjatlar [6;7;8;9;10;11;12;13] tahliliga asoslangan holda oiladagi zo'ravonlik bilan bog'liq huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshiruvchi ichki ishlar organlari xizmatlarini ularga yuklatilgan vazifalarni amalga oshirish bo'yicha asosiy faoliyat yo'nalishlaridan kelib chiqqan holda, shartli ravishda quyidagi guruhlarga:

a) asosiy faoliyat yo'nalishi huquqbuzarliklar profilaktikasi, shu jumladan ularning barvaqt profilaktikasini amalga oshiruvchi xizmatlar;

b) asosiy faoliyat yo'nalishi jamoat tartibi va xavfsizlikni ta'minlash bo'lgan xizmatlar;

v) asosiy faoliyat yo'nalishi sodir etilgan jinoyatlarni aniqlash, fosh etish va javobgarlik muqarrarligini ta'minlash bo'lgan xizmatlar;

g) asosiy faoliyat yo'nalishi sodir etilgan jinoyat uchun sud tomonidan tayinlangan jazolarning ijrosini ta'minlash bo'lgan xizmatlarga ajratish mumkinligini [14; 107–144-b.] ta'kidlaydi.

Shuningdek, A. Murodov xotin-qizlarga nisbatan sodir etiladigan tazyiq va zo'ravonliklar profilaktikasining ustuvor yo'nalishi sifatida huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatini takomillashtirish lozim degan fikrni ilgari suradi.

Professor Q.P. Abdurasulova maishiy turmush sohasidagi jinoyatlarning oldini olishda ularning kelib chiqish sabablari va sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlarni chuqur o'rganish

hamda ularni jamoat tashkilotlari bilan hamkorlikda bartaraf etish yo'nalishini ustuvor deb hisoblaydi [15; 354–361-b].

Yuqoridagi fikr-mulohazalardan kelib chiqqan holda, bugungi kundagi huquqbuzarliklar profilaktikasi ustuvor yo'nalishlariga normativ-huquqiy hujjatlar asosida oydinlik kiritib o'tamiz. Huquqbuzarliklar profilaktikasi – bu jamiyatda huquqbuzarliklarning oldini olish, ularni keltirib chiqaradigan omillarni aniqlash va bartaraf etishga qaratilgan tizimli chora-tadbirlar majmui, deb qaraydigan bo'lsak, u quyidagi asosiy yo'nalishlarda amalga oshiriladi:

1. Huquqbuzarliklarning oldini olish borasida huquqiy tarbiya va ijtimoiy ongni shakllantirish yo'nalishi O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi [16] hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida"gi farmoniga [17] asoslangan bo'lib:

– aholining, ayniqsa, yoshlarning huquqiy bilimlarini oshirish;

– OAV, internet, maktab va oliy ta'lim muassasalari orqali huquqiy madaniyatni targ'ib qilish;

– huquqbuzarliklarning oqibatlarini haqida ogohlikni oshirish kabi vazifalarni o'z ichiga oladi. Bu yo'nalish orqali fuqarolar ongida "Jamiyatda qonunga hurmat ruhini qaror toptirish – demokratik huquqiy davlat qurishning garovidir!" degan hayotiy g'oya mustahkamlanadi.

2. Ijtimoiy-iqtisodiy profilaktika O'zbekiston Respublikasining "Aholi bandligi to'g'risida"gi [18] hamda "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi qonunlariga [19] asoslangan bo'lib:

– ishsizlik, kambag'allik, nochorlik kabi salbiy ijtimoiy-iqtisodiy omillarni kamaytirish;

– yoshlar bandligini ta'minlash, tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash;

– ijtimoiy himoya tizimini rivojlantirish (ayniqsa yetimlar, nogironlar, yolg'izlar uchun) orqali ishsiz aholi hamda yoshlar o'rtasida jinoyatchilikning oldini olishni ta'minlaydi.

3. Ma'muriy-huquqiy yo'nalish O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'ri-

sidagi kodeksi [20], “Huquqbuzarliklar profilaktikasi to’g’risida”gi [21] va “Ichki ishlar organlari to’g’risida”gi [22] qonunlariga asoslanadi. Bu yo’nalishda:

- ichki ishlar, prokuratura va boshqa huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan profilaktik reydlar va nazorat tadbirlarini o’tkazish;

- huquqbuzarlik sodir etishga moyil bo’lgan shaxslar bilan individual ishlash;

- jamoat tartibini saqlash va nazoratni kuchaytirish kabi jinoyatchilikning oldini olish sohasidagi umumiy chora-tadbirlar amalga oshiriladi hamda huquqni muhofaza qiluvchi organlarning profilaktik vakolatlarini belgilaydi.

4. Ta’lim-tarbiyaviy yo’nalish O’zbekiston Respublikasining “Ta’lim to’g’risida”gi qonuni [23], O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oila institutini mustahkamlash konsepsiyasini tasdiqlash to’g’risida”gi qarori [24] hamda “Yoshlarga oid davlat siyosati to’g’risida”gi qonun [25] asosida tashkillashtiriladi va quyidagilarni amalga oshiradi:

- o’quv yurtlarida huquqiy savodxonlik bo’yicha maxsus darslar tashkil etish;

- oilada to’g’ri tarbiya berilishini rag’batlantirish;

- muassasalarda ijtimoiy pedagog va psixologlar faoliyatini yo’lga qo’yish kabilarni o’z ichiga oladi.

5. Institutlararo hamkorlik yo’nalishi keng qamrovga ega bo’lib, huquqbuzarliklarning oldini olishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu yo’nalishning huquqiy asoslari O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Mahallabay” ishlash tizimini amaliyotga joriy etish va aholining tadbirkorlik tashabbuslarini yanada qo’llab-quvvatlash chora-tadbirlari to’g’risida”gi qarori [26], O’zbekiston Respublikasi Bosh vazirining ijtimoiy rivojlantirish masalalari bo’yicha o’rinbosarining funksional vazifalari hamda Ta’lim va sog’liqni saqlash masalalari, Yoshlar, jamoat tashkilotlari, mahalla va oilani qo’llab-quvvatlash masalalari kotibiyatlari, Ma’naviyat va davlat tilini rivojlantirish masalalari departamenti to’g’risidagi nizomlarni tasdiqlash haqidagi qaror [27],

“Hududlarni kompleks rivojlantirish, kommunikatsiyalar, qurilish va uy-joy kommunal xo’jaligi masalalari kotibiyati to’g’risidagi nizomlarni tasdiqlash to’g’risida”gi qaror [28], O’zbekiston Respublikasining “Nodavlat notijorat tashkilotlari to’g’risida”gi qonuni [29]. Bu yo’nalish quyidagi vazifalarni o’z ichiga oladi:

- mahallalar, maktablar, diniy tashkilotlar, NNTlar va davlat idoralari o’rtasida koordinatsiyalangan ish olib borish;

- «Mahalla–posbon–ota-onalar–maktab» tamoyiliga asoslangan jamoaviy nazoratni tashkil etish;

- huquqbuzarlik xavfi yuqori bo’lgan hududlar va guruhlar bilan maxsus dasturlar asosida ishlash kabi vazifalarni o’z ichiga oladi.

6. Axborot texnologiyalaridan foydalanish yo’nalishi bugungi kunning eng dolzarb va keng tarqalgan yo’nalishlaridan biri bo’lib, kiberjinoyatchilikning oldini olishda katta ahamiyatga ega. Ushbu yo’nalishning huquqiy asoslarini O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “Raqamli O’zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi [30] farmoni, “Raqamli texnologiyalar vositasida sodir etiladigan jinoyatlarga qarshi kurashish sohasi uchun professional kadrlar tayyorlash tizimini joriy etish chora-tadbirlari to’g’risida”gi qarori [31] hamda boshqa sohaga oid normativ-huquqiy hujjatlar tashkil etadi.

Huquqbuzarliklarning oldini olishda ustuvor vazifalar quyidagilardan iborat:

- jinoyatlarning oldini olishda videokuzatuv, “Safe ID” tizimi, raqamli monitoring kabi texnologiyalardan foydalanish;

- onlayn profilaktik platformalarni ishlab chiqish (masalan, anonim murojaatlar, huquqiy maslahatlar);

- onlayn tarzda sodir etiladigan jinoyatchilikning oldini olish hamda aniqlash kabi chora-tadbirlarni amalga oshirish.

Xotin-qizlarga nisbatan sodir etiladigan tazyiq va zo’ravonliklar profilaktikasi jamiyatda xotin-qizlarning huquqlarini himoya qilish va ular uchun xavfsiz, barqaror muhit yaratishda muhim

ahamiyat kasb etadi. Bu yo'nalishdagi ustuvor chora-tadbirlar quyidagi asosiy yo'nalishlarni qamrab oladi:

Huquqiy asoslarni mustahkamlash va ijroni ta'minlash yo'nalishiga: zo'ravonlikka qarshi qonuniy normalarni takomillashtirish (masalan, oilaviy zo'ravonlik uchun jinoiy va ma'muriy javobgarlik belgilanishi); sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlarning bu yo'nalishdagi ishini takomillashtirish; zo'ravonlik holatlarini yashirmasdan, ularni aniqlash va rasmiy ro'yxatga olish tizimini kuchaytirish; xotin-qizlarga nisbatan zo'ravonlikni aniq ifodalovchi, jazo choralari belgilovchi qonunlarni qabul qilish va amaliyotga joriy etish; mavjud qonun hujjatlarini tubdan qayta ko'rib chiqish va ularning ijrosini kuchaytirish; zo'ravonlik qurbonlari uchun huquqiy yordam tizimini soddalashtirish va shaffoflashtirish kabilari kiradi.

Aholini xabardor qilish va ma'rifat ishlari: zo'ravonlik haqida jamoatchilikni xabardor qilishga qaratilgan kampaniyalar, treninglar va seminarlar o'tkazish; maktab, kollej va oliy ta'lim muassasalarida bolalar va yoshlarga tenglik, hurmat va o'zaro bag'rikenglik tamoyillarini singdirish; ommaviy axborot vositalari orqali xotin-qizlarni himoya qilish mavzusida ijobiy ijtimoiy fikrni shakllantirishni o'z ichiga oladi.

Psixologik va ijtimoiy yordam ko'rsatish yo'nalishida: zo'ravonlik qurbonlari uchun bepul psixologik, huquqiy va ijtimoiy yordam ko'rsatuvchi markazlarni tashkil etish; xotin-qizlar uchun maxsus panohgohlar va ishonch telefonlari tarmog'ini kengaytirish; qurbonlarni jamiyatga reintegratsiya qilish dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish.

Huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatini kuchaytirish, ya'ni: ichki ishlar xodimlari, sudyalari va boshqa mutasaddi organlar xodimlarini maxsus o'quv kurslarida o'qitish (gender tengligi, zo'ravonlikni aniqlash va oldini olish usullari bo'yicha); zo'ravonlik holatlarini to'g'ri qayd etish, tahlil qilish va uning oldini olish bo'yicha ma'lumotlar bazasini shakllantirish.

Iqtisodiy imkoniyatlarni kengaytirish: xotin-

qizlarni ish bilan ta'minlash, kasbga o'rgatish va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash orqali ularning iqtisodiy mustaqilligini oshirish; moliyaviy yordam dasturlari, mikro kreditlar va subsidiyalar orqali eridan yoki oila a'zolaridan zo'ravonlik ko'rgan ayollarga yordam berish kabilarni o'z ichiga oladi.

Qonunchilik vositalari orqali profilaktika qilish yo'nalishi. Himoya orderi berish yoki uning talablari buzilganligi uchun javobgarlikka tortish; zo'ravonga nisbatan yuridik majburiyatlarni yuklash, masalan, yaqinlashishni taqiqlash, telefon, ijtimoiy tarmoqlar, SMS, elektron pochta orqali aloqaga chiqishni taqiqlash; jabrlanuvchining atrofida to'satdan paydo bo'lish, uni kuzatish, nazorat qilish kabi harakatlarni taqiqlash; reabilitatsiya kurslariga yuborish; tazyiq qilayotgan shaxslar bilan individual suhbatlar, ogohlantirish, huquqiy tushuntirish berish va qayta tarbiya ishlarini tashkil etish; zarurat bo'lsa, bunday shaxslarga nisbatan ishonch yoki majburlov choralari qo'llanilishi mumkin.

Oila instituti va tarbiya tizimini takomillashtirish. Zo'ravonlikka moyillikni kamaytirish uchun sog'lom oilaviy muhitni shakllantirishga qaratilgan ishlarni olib borish, er-xotinlar o'rtasida o'zaro hurmat, maslahatlashuv va muloqot madaniyatini shakllantirish kabi profilaktik yo'nalishlar ishlar olib borish talab etiladi.

Xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo'ravonliklar profilaktikasidagi ustuvor yo'nalishlarga quyidagilarni qo'shimcha qilish mumkin:

- maishiy zo'ravonlikning oldini olish;
- qonun buzilishigacha bo'lgan bosqichda profilaktika olib borish;
- zo'ravonlikka moyil shaxslar bilan ishlash (psixologik korreksiya, ogohlantirish, profilaktik suhbat);
- qurbonlarni muhofaza qilish va reabilitatsiya qilish yo'nalishi;
- risolalar, bukletlar va OAV orqali er-xotin munosabatlarida zo'ravonlikka yo'l qo'yilmasligi haqida targ'ibot kabilarni keltirish mumkin.

Olib borilayotgan targ'ibot ishlariga qaramasdan, xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo'ravonliklar profilaktikasida hali ham kamchiliklar mavjud.

Jumladan:

– aholining huquqiy savodxonlik va xabardorlik darajasining pastligi. Aholining, ayniqsa, ayollarning katta qismi o'z huquqlarini va mavjud himoya mexanizmlarini bilmaydi. Qishloq hududlarida va patriarxal jamiyatlarda zo'ravonlik holatlari "oila ichidagi shaxsiy masala" sifatida qaraladi, bu esa hisobot berishni, yordam so'rashni cheklaydi;

– reabilitatsiya va psixologik yordam tizimining yetarlicha rivojlanmaganligi. Ayollar uchun panoh uylar soni cheklangan. Mavjud markazlar esa ko'p hollarda moddiy-texnik bazaga ega emas, psixolog, yurist, ijtimoiy ishchi kabi mutaxassislar doimiy asosda ishlamaydi. Aksariyat hollarda bunday xizmatlar faqat viloyat markazlari yoki yirik shaharlarda to'plangan. Davlat tizimida xizmat qilayotgan psixolog, ijtimoiy ishchi va yuridik maslahatchilarning soni yetarli emas. Aholining aksariyati, ayniqsa, qishloq joylarda yashovchi ayollar bunday markazlarning mavjudligidan xabardor emas. Psixologik yordam ko'rsatish – ba'zi hududlarda "uyatli" yoki "keraksiz" faoliyat deb qaralmoqda. Jabrlanuvchilar o'zlarini xavfsiz his qilishlari uchun zarur bo'lgan maxfiylik, xavfsizlik choralari ba'zi hududlardagi muassasalarda talab darajasida emas. Ba'zida panohga olinish holati zo'ravon yaqinlar tomonidan osonlikcha aniqlanadi;

– idoralararo hamkorlikning tizimli emasligi. Mahalla, IIB, maktab, NNTlar o'rtasidagi hamkorlik ko'pincha faqat hujjatlarda qolib ketadi. Idoralar o'rtasida ma'lumot almashinuvi yo'q yoki kechikkan holda amalga oshadi. Bu esa zo'ravonlik holatlarini barvaqt aniqlash va ogohlantirishni qiyinlashtiradi. Xorijdagi "interinstitutional guruhlar" kabi muntazam monitoring va muvofiglashtiruvchi strukturalar mavjud emas;

– zo'ravonliklarga nisbatan yondashuvning soddaligi. Ko'p hollarda faqat zo'ravonlik sodir bo'lganidan keyin chora ko'riladi, ya'ni profilaktika emas, faqat reaksiya mavjud. Zo'ravonlikka moyil shaxslar bilan oldindan ishlash mexanizmi yo'q, ular bilan psixologik suhbatlar, tuzatish dasturlari olib borilmaydi;

– axborot texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlarining yetarlicha joriy etilmaganligi. "Xavfsiz shahar", "Safe ID" kabi tizimlar mavjud bo'lsada, ular zo'ravonlik holatlarini avtomatik aniqlash yoki ogohlantirish darajasiga yetmagan. Hududiy bazalar, xavf indikatorlari, real vaqt monitoring tizimlari yo'q yoki umumlashtirilmagan;

– gender nazorati tizimining faol emasligi. Mahallalarda "gender nazorat guruhleri"ni tuzish haqida ko'p gapirilgan bo'lsada, ularning amaliy faolligi past. O'zbekiston tajribasida "qo'shnichilik nazorati" yoki "srimestoppers" kabi jamoaviy profilaktika metodlari joriy etilmagan;

– iqtisodiy mustaqillikni ta'minlash mexanizmlarining cheklanganligi. Ayollarga mikro-kredit, kasb o'rganish imkoniyatlari berilayotgan bo'lsa ham, bu dasturlar yetarlicha targ'ib qilinmaydi. Erkaklarga moliyaviy bog'liqlik – zo'ravonliklar kelib chiqishining muhim omili bo'lib qolmoqda.

Xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo'ravonliklar profilaktikasidagi ustuvor yo'nalishlarning kamchiliklarini bartaraf etish uchun yangilik sifatida quyidagilarni kiritish mumkin:

Ma'lumotlar bazasi va monitoring tizimini yo'lga qo'yish. Xotin-qizlarga nisbatan zo'ravonlik holatlari bo'yicha yagona elektron ma'lumotlar bazasini shakllantirish. "Xavf guruhi"ga kiruvchi ayollarni aniqlash va ular bilan muntazam ish olib borish. Xotin-qizlar bilan ishlovchi inspektorlar, faollar va mahalla tizimini yangilash, ya'ni tizimlar hamkorligidagi yangicha faoliyatni yo'lga qo'yish.

Aholini xabardor qilish va huquqiy ongini oshirish. Ayollar, erkaklar, yoshlar va hatto bolalarga zo'ravonlikka qarshi ta'lim berish, maktab va OTMlarida gender tenglik, inson huquqlari va muloqot madaniyatiga oid darslar joriy etish, masjidlar, MTTlari va jamoat joylarida ma'rifiy tadbirlar o'tkazish. Xorijiy davlatlarda bu samarali usul hisoblanadi. Masalan, AQSH, Kanada, Buyuk Britaniya, Germaniya, Avstraliya kabi davlatlarda jinoyatchilikka qarshi kurashishda jamoatchilik nazorati mexanizmlari keng qo'llaniladi. Mazkur tadbirlar, ayniqsa, AQSH va

Avstraliya shaharlarida ko'p kuzatilmoqda. Mazkur tadbirlarga quyidagilarni kiritish mumkin: "Qo'shnihilik kuzatuv" (Neighborhood Watch), anonim xabar beruvchi xizmatlar (Crimestoppers), "Huquqbuzarliklar profilaktikasining tashqi muhitdan kuzatuv omillari" (crimes online) (Crime Prevention Through Environmental Design (Broken Windows), "Xavfsiz shahar" (Safety City) kabi dasturlar ishlab chiqilib, amaliyotda samarali tatbiq etib kelinmoqda. Respublikamizda ham ushbu dasturlardan huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatida foydalanish mumkin. Masalan, Toshkent shahrida "Xavfsiz shahar" apparat-dasturiy kompleksining ishlab chiqilishi ushbu innovatsiyalarning amaliy qo'llanilishiga imkoniyat yaratadi [32; 216-b.].

Psixologik va ijtimoiy yordam tizimini rivojlantirish. Zo'ravonlik qurbonlari uchun "ishonch telefonlari", reabilitatsiya markazlari, panohgohlar tashkil etish. Psixolog, yurist, ijtimoiy xodimlar ishtirokida kompleks yordam ko'rsatish. Oilani saqlab qolishga emas, avvalo, jabrlanuvchi xavfsizligiga e'tibor qaratish lozim.

Xotin-qizlarning iqtisodiy mustaqilligini ta'minlash. Ayollarni kasbga o'rgatish, tadbirkorlikka jalb qilish, mikrokreditlar berish. Mehnat bozorida ayollar uchun teng imkoniyatlarni yaratish. Moliyaviy jihatdan erkakka bog'liqlikni kamaytirish orqali tazyiq xavfini kamaytirish. Bu borada yurtimiz qonunchiligida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xotin-qizlar tadbirkorligini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlashga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori qabul qilingan bo'lib, unga ko'ra, xotin-qizlarning loyihalarini qo'llab-quvvatlash O'zbekiston Respublikasida joylashgan turli banklar hisobidan 2025-yilda qo'shimcha 200 million AQSH dollari yo'naltirilishi belgilandi [33] hamda qarorning mazmuni ayollarning moliyaviy mustaqilligini ta'minlashga qaratilgan.

Institutsional hamkorlik va idoralararo muvofiqlashuv. Mahalla, IIO, ta'lim, tibbiyot, mehnat organlari o'rtasida muvofiqlashgan holda ish olib borish. Mahallada aniq zo'ravonlik holatlarini kuzatuvchi "gender nazorat guruhlari" tashkil

etish. Xotin-qizlar qo'mitalari, NNTlar, faollar va OAV bilan hamkorlikda ish yuritish lozim. Masalan, bu borada Germaniyada zo'ravonlikka qarshi kurashda poltisiya, sud, ijtimoiy xizmatlar va tibbiy muassasalar o'rtasida muvofiqlashtiruvchi "Interinstitutsional guruhlar" tashkil etilgan. Ushbu guruhlar doimiy ravishda axborot almashish, xavfni baholash va jabrlanuvchini himoya qilish rejalarini kelishib oladi [34].

Zo'ravonlik sodir bo'lishidan oldin aniqlash imkonini beruvchi xavf indikatorlarini joriy etish (masalan, oilaviy nizolar, psixologik bosim, izolyatsiya). Zo'ravonlik – bu to'satdan yuzaga keladigan holat emas, balki ko'p hollarda unga olib boruvchi alomatlar va signallar avvalroq kuzatiladi. Shuning uchun bu xavfni barvaqt aniqlash va unga javob choralarini ko'rish nafaqat jabrlanuvchilarni himoyalashda, balki jamiyatda zo'ravonlikni oldini olishda ham muhim ahamiyatga ega. Xususan, quyidagi xavf indikatorlari zo'ravonlik sodir etilishidan avval kuzatilishi mumkin bo'lgan signallar hisoblanadi. Bu borada mahallalarda, IIB va xotin-qizlar bo'limlarida xavf tahlilini olib borish, tibbiy muassasalar, huquqni muhofaza qilish organlari va psixologlar tomonidan so'rovnomalar orqali xavfni baholash; jabrlanuvchilar yoki potensial xavf ostidagi shaxslar xavf darajasini baholaydigan va yordam so'rash imkonini beradigan ilovalar joriy etish; mahalliy hokimlik, IIB, oilaviy shifokor va psixologlarni jalb qilgan holda "haftalik monitoring" dasturlari tuzish; ma'lumotlar bazalarida zo'ravonlikka oid ma'lumotlar asosida signalizatsiya tizimini yo'lga qo'yish lozim.

Shuningdek, qo'shimcha tarzda quyidagilarni kiritish mumkin:

Ayollarning shaxsiy salohiyatini oshirish. Ayollar bilan o'zini himoya qilish, huquqiy savodxonlik, mustahkam shaxsiy pozitsiyani shakllantirish bo'yicha mashg'ulotlar o'tkazish. Iqtisodiy mustaqillik orqali zo'ravonlikdan chiqish imkoniyatini yaratish;

Zo'ravonlikdan jabr ko'rgan xotin-qizlarga panohgoh, psixologik va huquqiy yordam ko'rsatish ularni jamiyatga qayta moslashtirish, ishga

joylashtirish, kasbga o'rgatish kabi choralarni o'z ichiga oladi.

Xulosa qiladigan bo'lsak, xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo'ravonliklar profilaktikasining ustuvor yo'nalishlari nafaqat inson huquqlarini ta'minlash, balki jamiyatda ijtimoiy barqarorlik, gender tengligi va huquqiy madaniyatni shakllantirishga xizmat qiluvchi chora-tadbirlar tizimidir. O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda bu borada sezilarli islohotlar amalga oshirib yotgan bo'lsada, amaliyotda ko'zga tashlana-

yotgan muammolar ushbu yo'nalishda kompleks va tizimli yondashuvni talab qilmoqda.

Shunday qilib, xotin-qizlarga nisbatan sodir etiladigan tazyiq va zo'ravonliklar profilaktikasi samaradorligi milliy qonunchilikni takomillashtirish, tizimli hamkorlikni yo'lga qo'yish va zamonaviy texnologiyalarni faol joriy etish orqali kuchaytirilishi mumkin. Bu esa, o'z navbatida, gender tengligi, ijtimoiy barqarorlik va inson qadriyatlariga asoslangan demokratik jamiyat qurilishida muhim omil hisoblanadi.

Foydalanilgan manbalar

1. *Mirzaraimov I.M.* Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni oshkorlashtirishni oldini olishning jinoyat-huquqiy va kriminologik choralari: yurid. fan. nom. ... dis. avtoref. – T., 2003. – B. 23.
2. *Игошев К.Е., Устинов В.С.* Введение в курс профилактики преступлений. – Горький, 1977. – С.116.
3. *O'razaliyev M.Q.* Oilada voyaga yetmaganlarga qarshi sodir etiladigan jinsiy jinoyatlarning oldini olish: yurid. fan. nom. ... dis. – T., 2008. – B. 181.
4. *Fazilov I. Yu.* Odam savdosiga qarshi kurashning jinoyat-huquqiy va kriminologik jihatlar: Yurid. fan. dok. ... dis. – T., 2016. – B. 222–223.
5. G'aniyev F.T. va boshqalar. "CENTRAL ASIAN JOURNAL OF ULTIDISCIPLINARY RESEARCH AND MANAGEMENT STUDIES" ilmiy jurnali. 2024. – B. 117. file:///C:/Users/HP/Downloads/CAJMRMS+1629%20(5).pdf.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 10-apreldagi «Ichki ishlar organlarining faoliyati samaradorligini tubdan oshirish, jamoat tartibini, fuqarolar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilishni ta'minlashda ularning mas'uliyatini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-5005-son farmoni // URL: <http://www.lex.uz>.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 14-martdagi «Huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 2833-sonli qarori // URL: <http://www.lex.uz>.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 18-apreldagi «Ichki ishlar organlarining huquqbuzarliklar profilaktikasi bo'linmalari faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 2896-sonli qarori // URL: <http://www.lex.uz>.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreldagi «Toshkent shahrida jamoat tartibini saqlash, huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashishning sifat jihatidan yangi tizimini joriy etish to'g'risida»gi 3528-sonli qarori // URL: <http://www.lex.uz>.
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 19-iyundagi «Toshkent shahrida jamoat tartibini ta'minlash, huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PQ-3786-son qarori // URL: <http://www.lex.uz>.
11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 23-avgustdagi «Ichki ishlar organlari boshqaruv, nazorat va shaxsiy tarkib bilan ishlashning samarali tizimini joriy etish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PQ-3919-son qarori // URL: <http://www.lex.uz>.
12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 18-apreldagi «Ichki ishlar organlarining jinoyatlarni tergov qilish sohasidagi faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ2898-son qarori // URL: <http://www.lex.uz>.
13. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 1-maydagi «Ichki ishlar organlarining jamoat tartibini saqlash va jamoat xavfsizligini ta'minlash sohasidagi faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-2940-son qarori // URL: <http://www.lex.uz>.
14. Murodov A.Sh. Ichki ishlar organlarining oiladagi zo'ravonlik bilan bog'liq huquqbuzarliklar profilaktikasini takomillashtirish: Yurid. fan. dok. ... dis. – T., 2019. – B. 107-144.

15. Q.R.Abdurasulova va boshqalar. Kriminalogiya: Darslik. – Toshkent: IIV Akademiyasi, 2006.
16. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi yangi taxrirda (2023 yil 30-aprel).
17. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 09.01.2019 yildagi PF-5618-son "Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida"gi farmoni. <https://lex.uz/ru/docs/-4149765?ONDATE=30.11.2021>.
18. O'zbekiston Respublikasining "Aholi bandligi to'g'risida" 2020-yil 20-oktyabrdagi O'RQ-642-son qonuni. <https://lex.uz/ru/docs/-5055690?ONDATE=30.04.2023>).
19. O'zbekiston Respublikasining "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida" 2016-yil 14-sentyabrdagi O'RQ-406-son qonuni. <https://lex.uz/docs/-3026246>.
20. O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi (yangi tahrirda (2023-yil 30-aprel) <https://lex.uz/acts/-97664>.
21. O'zbekiston Respublikasining "Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida" 2014-yil 14-maydagi O'RQ-371-son qonuni. <https://lex.uz/mact/-2387357>).
22. O'zbekiston Respublikasining "Ichki ishlar organlari to'g'risida" 2016-yil 16-sentyabrdagi qonuni. <https://lex.uz/acts/-3027843>.
23. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida" 2020-yil 24-sentyabrdagi qonuni. <https://lex.uz/docs/-5013007>.
24. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida oila institutini mustahkamlash konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" 2018-yil 27-iyundagi PQ-3808-son qarori. <https://lex.uz/mact/-3797625>.
25. O'zbekiston Respublikasining "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida" 2016-yil 14-sentyabrdagi O'RQ-406-son qonuni. <https://lex.uz/docs/-3026246>.
26. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Mahallabay" ishlash tizimini amaliyotga joriy etish va aholining tadbirkorlik tashabbuslarini yanada qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida" 2021-yil 19-martdagi 152-son qarori. <https://lex.uz/docs/-5353246>.
27. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining ijtimoiy rivojlantirish masalalari bo'yicha o'rinbosarining funksional vazifalari hamda Ta'lim va sog'liqni saqlash masalalari, Yoshlar, jamoat tashkilotlari, mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash masalalari kotibiyatlari hamda Ma'naviyat va davlat tilini rivojlantirish masalalari departamenti to'g'risidagi nizomlarni tasdiqlash haqida" 2021-yil 5-iyuldagi 419-son qarori. <https://www.lex.uz/uz/docs/-5495013?ONDATE=11.05.2022>.
28. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri birinchi o'rinbosarining funksional vazifalari to'g'risidagi hamda Hududlarni kompleks rivojlantirish, kommunikatsiyalar, qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi masalalari kotibiyati to'g'risidagi nizomlarni tasdiqlash haqida" 2021-yil 5-iyuldagi 418-son qarori. <https://lex.uz/docs/-5490934?ONDATE=05.07.2021%2000>.
29. O'zbekiston Respublikasining "Nodavlat notijorat tashkilotlari to'g'risida" 1999-yil 14-apreldagi 763-l-son qonuni. <https://lex.uz/acts/-11360>.
30. 2020-yil 5-oktyabrdagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Raqamli O'zbekiston – 2030" strate-giyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2020-yil 5-oktyabrdagi PF-6079-son farmoni. <https://lex.uz/ru/docs/-5030957>.
31. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Raqamli texnologiyalar vositasida sodir etiladigan jinoyatlarga qarshi kurashish sohasi uchun professional kadrlar tayyorlash tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida" 2025-yil 22-yanvardagi PQ-17-son qarori <https://lex.uz/acts/-7339006>.
32. Niyozova S.S. Shaxsga qarshi zo'rlik ishlatib sodir etiladigan jinoyatlarning viktimologik profilaktikasi: Yurid. fan. dok. ... dis. – T., 2020. – B. 216.
33. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xotin-qizlar tadbirkorligini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlashga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2025-yil 7-martdagi PQ-96-son qarori.
34. 2001-yil 11-dekabrda Germaniya Bundestagi tomonidan qabul qilinganl 3513-sonli "Zo'ravonlikka qarshi kurash bo'yicha Federal qonun" (*Gesetz zur Verbesserung des zivilrechtlichen Schutzes bei Gewalttaten und Nachstellungen – Gewaltschutzgesetz*, 2002) <https://www.gesetze-im-internet.de/geswchg/BJNR351310001.html>.